

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
IJTIMOIY FANLAR

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

tizimining falsafiy jihatlari.....	106
------------------------------------	-----

SIYOSAT

F.F.Dadaboyev	
Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda davlat siyosatining roli	110
J.S.Sotvoldiyev	
Sharq va G'arb siyosiy tamaddunida tinchlik va xavfsizlik masalasi talqini	114
T.A.Azizov	
Xorijiy tajribalar asosida favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish imkoniyatlari.....	119
A.To'xtasinov	
Inson manfaatlarini e'tirof etuvchi konstitutsiya	122
F.R.Ravshanov, X.Z.Muminovich	
Tarixiy geosiyosatda Markaziy Osiyo	128

TARIX

O.V.Mahmudov	
"O'rta asr arabshunoslik tarjima markazlari": tushuncha va muomalaga kiritishning ilmiy asoslari	136
Ф.Т.Баитова	
Политическая нестабильность как фактор возникновения народного восстания в Кокандском ханстве (1873-1876 гг.).....	147
X.X.Mamajonov	
Turkiya Respublikasidagi Temurshunoslik taraqqiyotida xorijdan ko'chib kelgan ziyolilarning o'rni	153
I.R.Tishabayeva	
Sovet davrida O'zbekistonda maktabgacha ta'lim muassasalari qurilishi va infratuzilmasining shakllanishi (1970–1990-yillar).....	157
X.L.Xolmirzayev	
"Jome ul-havodis" asari qo'lyozmalari va ularning tavsifi	162
O.B.Nizomiddinov	
Sovet davrida (1920–1930-yillar) Farg'ona vodiysida muzey va teatrlar faoliyati: madaniy o'zgarishlar tahlili	167
Sh.B.Muhiddinova	
Buxoro amirligidagi ijtimoiy hayot masalalari ingliz Aleksandr Byorns talqinida	171
M.A.Umarov	
Afg'oniston va Eronning sovet davlati bilan iqtisodiy sohadagi munosabatlarining qisqacha mazmun va mohiyati	176
S.G'.Nigmatova	
O'zbekistonda nodavlat ta'lim muassasalarining shakllanishi xususiy o'quv markazlar faoliyati misolida	180
J.Axmedov	
Some considerations on the intangible cultural heritage of Karakalpakstan	184
X.P.Jurayev	
Xiva xonligi qishloq xo'jaligida donli ekinlar va ularga doir ayrim mulohazalar	189
H.S.Yusupov	
Xorazm Xalq Sovet Respublikasida "Madrasalar islohoti" dasturining qabul qilinishi va uning oqibatlarini	193
M.Q.Tolibboyev	
Xalq dostonlarida otlarning harbiy ishidagi o'rni (tarixiy-elshunoslik tahlili).....	197
X.X.Mamajonov	
Mustafo Kamol Otaturk kundaligida Amir Temur siymosi	201



UO'K: 334.72

YANGI O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT SIYOSATINING ROLI**THE ROLE OF STATE POLICY IN THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURIAL ACTIVITY IN NEW UZBEKISTAN****РОЛЬ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ В РАЗВИТИИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ****Dadaboyev Farhodjon Fozilovich** 

Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish jarayonida davlat siyosatining o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot maqsadi — respublikada tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, investitsiya muhitini yaxshilash va iqtisodiy o'sishga erishishda davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini o'rganishdir. Tadqiqot metodlari sifatida hujjatli tahlil, qiyosiy tahlil va statistik ma'lumotlar tahlili qo'llanildi. Natijalarga ko'ra, so'nggi yillarda qabul qilingan qonun va farmonlar, soliq imtiyozlari, kredit va grant dasturlari tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim rol o'ynagan. Xulosa sifatida, davlat tomonidan yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar tadbirkorlikning barqaror rivojlanishiga xizmat qilayotgani ta'kidlanadi.

Аннотация

В данной статье анализируются роль и значение государственной политики в развитии предпринимательства в условиях Нового Узбекистана. Цель исследования – изучение основных направлений государственной политики в сфере поддержки предпринимательства в республике, улучшения инвестиционного климата и достижения экономического роста. В качестве методов исследования использовались документальный анализ, сравнительный анализ и анализ статистических данных. Согласно результатам, принятые в последние годы законы и указы, налоговые льготы, кредитно-грантовые программы сыграли важную роль в развитии предпринимательства. В заключении отмечается, что создаваемые государством благоприятные условия способствуют устойчивому развитию предпринимательства.

Abstract

This article analyzes the role and importance of state policy in the development of entrepreneurship in the conditions of New Uzbekistan. The purpose of the study is to study the main directions of state policy in supporting entrepreneurship in the republic, improving the investment climate and achieving economic growth. Documentary analysis, comparative analysis and statistical data analysis were used as research methods. According to the results, laws and decrees, tax incentives, credit and grant programs adopted in recent years have played an important role in the development of entrepreneurship. In conclusion, it is noted that the favorable conditions created by the state serve the sustainable development of entrepreneurship.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, davlat siyosati, investitsiya muhiti, iqtisodiy o'sish, Yangi O'zbekiston, islohotlar, soliq imtiyozi, biznes muhit, startup, innovatsiya.

Ключевые слова: предпринимательство, государственная политика, инвестиционный климат, экономический рост, Новый Узбекистан, реформы, налоговые льготы, бизнес-среда, стартап, инновации.

Keywords: entrepreneurship, state policy, investment climate, economic growth, New Uzbekistan, reforms, tax incentives, business environment, startup, innovation.

KIRISH

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy islohotlarning markazida turadi. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Tadbirkorlar — iqtisodiyotimizning tayanchi, jamiyatimizning eng faol va fidoyi qatlamidir. Biz ularga barcha shart-sharoitlarni yaratib berishimiz shart"[1]

So'nggi yillarda mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan **2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida** tadbirkorlikni rivojlantirish asosiy

SIYOSAT

ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Strategiyada kichik biznes ulushini yalpi ichki mahsulotdagi hissasini barqaror oshirish, tadbirkorlar uchun moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va davlatning biznesga aralashuvini kamaytirish vazifalari aniq ko'rsatilgan[2].

Dolzarblilik shundan iboratki, mamlakatimizda iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirish bevosita tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga bog'liq. Davlat siyosatining ushbu sohada to'g'ri yo'naltirilishi nafaqat ichki iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi, balki xalqaro bozorda O'zbekistonning raqobatbardoshligini ham oshiradi. Bundan tashqari, jahondagi globallashtirish jarayonlari va raqobatning kuchayishi sharoitida innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash iqtisodiy xavfsizlikning muhim omiliga aylanmoqda.

Shu bois, ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – davlat siyosatining tadbirkorlik rivojiga ta'sirini tizimli tahlil qilish, hujjatli, qiyosiy va statistik yondashuvlar asosida mavjud natijalarni baholash va istiqbolli yo'nalishlarni aniqlashdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar so'nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Mamlakat Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Tadbirkorlar — iqtisodiyotimizning tayanchi va xalqimiz farovonligining kafolatidir"[3]. Shu bois, milliy siyosatning markazida iqtisodiy erkinlikni oshirish, biznes uchun qulay muhit yaratish va innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari turibdi.

Tadqiqot davomida milliy va xalqaro ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning faolligi va siyosiy irodasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Masalan, iqtisodchi olim M. Porter raqobat ustunligini ta'minlash uchun davlatning "institutlarni yaratish, bilim va innovatsiyani rag'batlantirish"[4]dagi roli strategik ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. O'zbekistonlik iqtisodchi A. Vahobov esa, mamlakatimizda kichik biznesning YalMdagi ulushining 50 % dan ortiq bo'lishi — bu sohada olib borilayotgan davlat siyosatining samaradorligidan dalolat beradi, deya qayd etadi[5].

Xalqaro tajribalar ham ko'rsatadiki, Janubiy Koreyada "SME Promotion Act" asosida startaplarni davlat grantlari, innovatsion inkubatorlar va soliq imtiyozlari bilan qo'llab-quvvatlash yuqori natijalar bergan. Turkiyada "KOSGEB" agentligi kichik biznesni texnologik modernizatsiya va eksportga yo'naltirish orqali iqtisodiy o'sishga katta hissa qo'shmoqda. Germaniyada esa "Mittelstand" modeli kichik va o'rta bizneslarni kredit, maslahat va kadrlar tayyorlash orqali qo'llab-quvvatlaydi[6].

Metodologik yondashuv sifatida:

-Hujjatli tahlil — O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Qonuni (2020), Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar o'rganildi. Masalan, 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan PF-60-sonli Farmonda tadbirkorlar uchun moliyaviy manbalarga chiqishni kengaytirish va litsenziya tartiblarini soddalashtirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan[7].

-Qiyosiy tahlil — O'zbekiston tajribasi Janubiy Koreya, Germaniya va Turkiya amaliyoti bilan solishtirildi. O'zbekistondagi texnoparklar, innovatsion markazlar va startap inkubatorlari xorijdagi klaster tizimlari bilan o'xshash jihatlari aniqlanib, farqlari ko'rsatildi[8].

-Statistik tahlil — Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2019–2023-yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YalMdagi ulushi 54 % dan 54,9 % ga oshgan, ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlik subyektlari soni esa 338 mingdan 606 mingga yetgan[9]. Jahon bankining "Doing Business" reytingida O'zbekiston 2016-yildagi 87-o'rindan 2020-yilda 69-o'ringa ko'tarilgan[10].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida tadbirkorlik faoliyati nafaqat iqtisodiy o'sishning drayveri, balki ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning ham asosiy tayanchlaridan biri sifatida namoyon bo'ldi. 2017–2024 yillar oralig'ida amalga oshirilgan islohotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda bozor munosabatlarini chuqurlashtirish, mulkchilik shakllarini diversifikatsiya qilish va iqtisodiy erkinlikni kengaytirish borasida sifat jihatidan yangi bosqichga o'tildi[11].

Falsafiy nuqtai nazardan, bu jarayon ijtimoiy taraqqiyotning "inson omili" konsepsiyasi bilan bevosita bog'liqdir. Inson omili — bu shaxsning ijodiy faolligi, tashabbuskorligi va o'z iqtisodiy taqdirini mustaqil belgilash qobiliyatidir. Tadbirkorlik faoliyatining kengayishi erkinlik va mas'uliyat

kategoriyalarining uyg'unlashuvini ta'minlaydi. Amerikalik faylasuf J. Roulz o'zining "Adolat nazariyasi" asarida adolatning asosiy prinsipi sifatida **imkoniyatlar tengligini** ta'kidlab, "har bir inson o'z qobiliyatlarini rivojlantirish uchun teng huquqli sharoitga ega bo'lishi kerak"[12] deya qayd etadi. O'zbekistonda yoshlar, ayollar va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni tadbirkorlikka jalb etish siyosati aynan shu falsafiy tamoyilning amaliy ifodasidir.

Hind olimi Amartya Sen "Erkinlik sifatida rivojlanish" (Development as Freedom) asarida iqtisodiy imkoniyatlarning kengayishini inson erkinligining ajralmas qismi sifatida talqin qiladi[13]. O'zbekistonda litsenziya va ruxsat tartiblarining soddalashtirilishi, soliq yukining kamaytirilishi va kredit resurslariga kirish imkoniyatlarining kengaytirilishi Sen nazariyasi bilan uyg'un keladi.

Amerikalik futurolog Alvin Toffler "Uchinchi to'lqin" asarida yangi iqtisodiy modelda innovatsion tafakkur, raqobat madaniyati va bilim almashuvi asosiy resurslarga aylanishini ta'kidlaydi[14]. So'nggi yillarda O'zbekistonda texnoparklar, startap-inkubatorlar va innovatsion markazlarning paydo bo'lishi aynan shu falsafiy qarashlarning amalda ro'yobga chiqayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, M. Porterning "Raqobat ustunligi" konsepsiyasida davlatning asosiy vazifasi — tadbirkorlik uchun qulay institutsional muhit yaratish, bilim va texnologiyani rag'batlantirish[15] ekanligi qayd etilgan. 2017–2024 yillarda qabul qilingan Prezident farmonlari, soliq imtiyozlari, "Yoshlar – kelajagimiz" va "Ayollar daftari" dasturlari Porterning nazariy asoslariga mos ravishda ishlab chiqilganini ko'rish mumkin.

Bu jarayon ijtimoiy falsafaning "inson omili"ni markazga qo'ygan paradigmasi bilan uyg'unlashgan holda, jamiyatda yangi iqtisodiy tafakkurni shakllantirmoqda.

1. Tadbirkorlik subyektlarining ikki barobarga o'sishi — ijtimoiy dinamikasi. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2017-yilda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 300 ming atrofida bo'lgan bo'lsa, 2024-yil yakuniga kelib bu ko'rsatkich 606,7 mingtaga yetdi. Bu faqat raqam emas, balki jamiyatda mulkdorlar qatlamining kengayishi, fuqarolarning iqtisodiy mustaqilligi va mas'uliyatining ortishidan darak beradi. Falsafiy nuqtai nazardan, bu — jamiyatning o'zini o'zi ta'minlash qobiliyatining kuchayishi va erkin iqtisodiy subyekt sifatida shakllanishidir.

2. Soliq va moliyaviy rag'batlar — iqtisodiy erkinlikning institutsional asoslari

Soliq imtiyozlari va yengillashtirilgan kreditlar, xususan, yagona ijtimoiy soliqning 25 % dan 12 % ga, QQSning 20 % dan 15 % ga tushirilishi, tadbirkorlar uchun iqtisodiy erkinlik va kapital aylanishining tezlashishiga olib keldi. 2023-yilda "Biznesni rivojlantirish jamg'armasi" orqali 10,2 trillion so'mlik kredit ajratilishi³ — davlatning iqtisodiyotdagi tartibga soluvchi va rag'batlantiruvchi subyekt sifatidagi faol rolini ko'rsatadi. Siyosatshunoslik nuqtai nazaridan, bu islohotlar iqtisodiy siyosatning "liberalizatsiya + qo'llab-quvvatlash" modeliga mos keladi.

3. Ijtimoiy qatlamlarni iqtisodiy jarayonga jalb etish — inkluziv rivojlanish

"Yoshlar – kelajagimiz" va "Ayollar daftari" dasturlari orqali 2018–2024 yillar davomida 1,2 milliondan ortiq ayollar va 120 mingdan ziyod yoshlar tadbirkorlik faoliyatiga jalb etilganligi mamlakatimizda, ijtimoiy inkluziv rivojlanish tamoyillarini amalda ro'yobga chiqarish bo'lib, iqtisodiy resurslarga teng kirish imkoniyati jamiyatdagi ijtimoiy adolat va tenglikni mustahkamlaydi.

4. Raqamlashtirish — byurokratik to'siqlardan ozod etish mexanizmi

2022-yildan boshlab tadbirkorlarni onlayn ro'yxatdan o'tkazish jarayoni amaliyotga tatbiq etildi va bu ro'yxatdan o'tish vaqtini 3–5 ish kunidan 30 daqiqagacha qisqartirdi. Bu nafaqat iqtisodiy jarayonlarning tezlashuvi, balki davlat-biznes munosabatlarida yangi ochiqlik va shaffoflik madaniyatining shakllanishini ham anglatadi. Siyosiy jihatdan, bu — davlat boshqaruvida raqamli transformatsiyaning muhim bosqichi.

5. Mavjud to'siqlar — hududiy tafovut va inson kapitali yetishmovchiligi

Hududlar o'rtasidagi iqtisodiy rivojlanish farqi hali ham sezilarli. Masalan, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Surxondaryo viloyatlarida energiya ta'minoti va transport infratuzilmasidagi uzilishlar sabab korxonalar to'liq quvvat bilan ishlay olmayapti⁷. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2024-yilgi hisobotiga ko'ra, kichik bizneslarning 27 % malakali mutaxassis yetishmasligidan aziyat chekmogda⁸. Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan, bu holat inson kapitali rivojlanishiga sarmoya kiritish zaruriyatini ko'rsatadi.

XULOSA

O'zbekistonning so'nggi yetti yillik taraqqiyot yo'li chuqur tahlil qilinganda, tadbirkorlik siyosati mamlakat iqtisodiy o'sishining strategik drayveriga aylangani yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu davr mobaynida davlat tomonidan amalga oshirilgan islohotlar, qabul qilingan farmon va qonunlar, joriy

SIYOSAT

etilgan dasturlar iqtisodiy muhitni tubdan yangilash, biznes yuritish erkinligini kengaytirish va innovatsion iqtisodiyot asoslarini shakllantirishga xizmat qildi.

Bu jarayonda davlatning roli ikki asosiy yo'nalishda ko'zga tashlandi:

Birinchidan, bozor erkinliklarini kengaytirish orqali iqtisodiy subyektlarning o'z-o'zini boshqarish salohiyatini oshirish, ularni tashabbuskor, mustaqil va mas'uliyatli qaror qabul qiluvchi subyekt sifatida shakllantirishga erishildi. Bu iqtisodiyotda davlatning haddan tashqari aralashuvini qisqartirib, tadbirkorlik faoliyatini bozor qonuniyatlariga mos ravishda rivojlantirishga sharoit yaratdi.

Ikkinchidan, ijtimoiy qatlamlar o'rtasida imkoniyatlar tengligini ta'minlashga qaratilgan inkluziv siyosat olib borildi. Ayollar, yoshlar, nogironligi bo'lgan shaxslar va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish orqali iqtisodiy resurslarga kirish imkoniyatlari kengaydi, jamiyatda ijtimoiy adolat va birdamlik tamoyillari mustahkamlandi.

Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan, bunday siyosat — **iqtisodiy mustaqillik, ijtimoiy adolat va siyosiy barqarorlikning o'zaro uyg'unlashgan modeli** sifatida talqin qilinadi. Bu model shaxs erkinligini jamiyat manfaatlar bilan uyg'unlashtiradi, fuqarolarning iqtisodiy faolligini oshiradi hamda davlat va jamiyat o'rtasida o'zaro ishonch muhitini mustahkamlaydi. Shuningdek, iqtisodiy siyosatda erkinlik va mas'uliyat, individual manfaatlar va ijtimoiy manfaatlar o'rtasidagi muvozanat falsafiy jihatdan demokratik taraqqiyotning poydevorini yaratadi.

"Yangi O'zbekiston" konsepsiyasining amaliy ifodasi sifatida shakllangan ushbu integral rivojlanish modeli nafaqat bugungi iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlamoqda, balki kelgusida ham barqaror taraqqiyot, global raqobatbardoshlik va ijtimoiy uyg'unlikni kafolatlaydigan mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi. Bu yo'lda davlatning maqsadli siyosiy irodasi, fuqarolarning iqtisodiy faolligi va jamiyatdagi innovatsion tafakkur uyg'unligi kelajakda O'zbekistonni mintaqaviy iqtisodiy markazga aylantirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. – B. 145.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2017. – B. 312.
3. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi*. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. – B. 145.
4. Porter M. *Competitive Advantage*. – New York: Free Press, 1998. – P. 74–80.
5. Vahobov A. *O'zbekiston iqtisodiyoti: islohotlar va rivojlanish istiqbollari*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – B. 212.
6. OECD. *SME and Entrepreneurship Policy in Korea, Turkey and Germany*. – Paris: OECD Publishing, 2020. – P. 33–45.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–60-sonli Farmoni, 28 yanvar 2022 yil.
8. UNDP. *Innovation Ecosystems in Transition Economies*. – New York: UNDP, 2021. – P. 57–64.
9. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari, 2024 yil.
10. World Bank. *Doing Business 2020*. – Washington D.C.: World Bank Group, 2020. – P. 5.
11. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi*. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2022. – B. 145–148.
12. Rawls, John. *A Theory of Justice*. – Cambridge, Massachusetts: Harvard University Press, 1971. – B. 73.
13. Sen, Amartya. *Development as Freedom*. – New York: Alfred A. Knopf, 1999. – B. 36–38.
14. Toffler, Alvin. *The Third Wave*. – New York: William Morrow and Company, 1980. – B. 215–217.
15. Porter, Michael E. *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance*. – New York: Free Press, 1998. – B. 112–115.